

## O‘QUVCHILARNING KREATIV FAOLIYATINI RAQAMLI TA’LIM VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH

**Raxmatillayeva Ezozaxon Zafarjon qizi**

Namangan davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-kurs magistranti

E-mail: [raxmatillayevaezozaxon@gmail.com](mailto:raxmatillayevaezozaxon@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘quvchilarning kreativ faoliyatini turli raqamli ta’lim vositalaridan foydalanib rivojlantirish usullari va ularning ahamiyati haqida bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** kreativ faoliyat, raqamli ta’lim, raqamli ta’lim vositalari, audiomatn, kreativ fikrlash, kreativ g‘oya, kompyuter

### АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны методы и значение развития творческой активности учащихся с использованием различных цифровых образовательных инструментов.

**Ключевые слова:** творческая деятельность, цифровое образование, инструменты цифрового обучения, аудиотекст, креативное мышление, творческая радость, компьютер

### ABSTRACT

This article describes the methods and importance of developing students' creative activity using various digital educational tools.

**Key words:** Creative activity, digital education, digital learning tools, audiotext, creative thinking, creative opinion, computer.

Bugungi kunda inson hayotining har bir jabhasiga, shu jumladan ta’lim tizimiga ham innovatsion g‘oyalar va raqamli ta’lim vositalari yashin tezligida kirib bormoqda. Buning natijasida inson hayotida, faoliyatida katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Xususan, borliq haqidagi tasavvurlar kengaymoqda. Ta’lim tizimiga yangiliklar kirib kelishi natijasida har bir o‘quvchi atrof-olamga nisbatan o‘ziga xos munosabatga ega bo‘lmoqda.

Raqamli ta’lim vositalarining dars jarayonlariga kirib kelishi natijasida o‘quvchilarda kreativlik shakllanib rivojlanmoqda. Gardnerning fikricha: “Kreativlik-

shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim".

Kreativ faoliyat o'zida xilma-xillikni aks ettiradi. Insonlar uchun kreativlik yangilik hisoblanadi. Kreativ faoliyat bugungi kunda har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etmoqda.

Bugun jahonda yuz berayotgan to'rtinchi sanoat inqilobining harakatga keltiruvchi kuchi kreativ faoliyatdir. Elektron xizmatlar, 3D printerlar, virtual reallik – bularning barchasi inson tafakkurining mahsulidir. Demak, raqamli ta'lim vositalarining o'zi kreativ faoliyat mahsulidir. Xo'sh, unda biz qanday qilib o'quvchilarni raqamli ta'lim vositalaridan foydalanib kreativ faoliyatini rivojlantirishimiz mumkin?

Kreativlik inglizcha "create" so'zidan olingan bo'lib, yaratish degan ma'noni bildiradi. Kreativ faoliyat deyilganda insonlarning yangiliklar yaratishi, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Ayni davrda ta'lim muhitida har qanday innovatsiya kreativ qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim asos vazifasini bajaradi.

Kreativ faoliyatni rivojlantirishda, avvalo shu faoliyatni rivojlantiruvchi axborotlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish va samarali yo'llaridan unumli foydalanish lozim. Biz bu kabi axborotlarni internet ma'lumotlaridan, turli saytlardan, elektron kutubxonalardan topishimiz mumkin. Ta'lim oluvchilarga kompyuterlar yordamida faoliyat yuritish va kreativ g'oyalarni ishlab chiqish bir qadar qulay hisoblanadi. Buning uchun ta'lim oluvchilardan kompyuter savodxonligiga ega bo'lish, kundan kunga yangilanayotgan kompyuter dasturlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

Kreativ g'oyalarni bevosita kompyuter yordamida namoyon qilish o'quvchiga bir qator qulayliklar beradi. Misol uchun o'quvchi fikrini yozma ifoda etishi, uzoq masofalarda ta'lim olayotgan tengdoshlar bilan fikr almashishi, o'z kreativligini namoyon qilayotganda kompyuterlardan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanishi mumkin.

Axborot texnologiyalari, texnik vositalar o'quv jarayoni samaradorligini keng tarzda ta'minlaydi. Hozirda ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan axborot manbalarini 3 guruhga ajratish mumkin. Ular:

1. Tasviriy axborot manbalari;
2. Nutqiy axborot manbalari;
3. Nutqiy-tasviriy axborot manbalari.

Raqamli ta'lim vositalari esa axborotlarning mana shu 3 turini o'zida namoyon etadi. Bulardan hozirgi ta'lim darsliklarida audio va video materiallarni keng ravishda topishimiz mumkin. Bu materiallardan yakka tarzda ham, jamoa tarzida ham foydalana olishimiz - ularning afzalligidir.

7-sinf ona tili darsligida “Ijtimoiy tarmoqlar” mavzusidagi 9-11-sahifalarda joylashgan topshiriqlarda “Sun’iy intellect” audiomatnini tinglab, audiomatndan olgan xulosalar haqida o‘z fikrlarini yozish va sun’iy intellektning hayotimizda tutgan ijobiy va salbiy jihatlari to‘g‘risida fikr yuritish topshiriqlari berilgan. Bu topshiriqlarda, birinchidan, raqamli ta’lim vositalaridan biri audiomatn qo‘llanilgan. Ikkinchidan, tinglangan natn yuzasidan kreativ fikrlash talab etilmoqda. Yuqoridagi topshiriq o‘quvchida tinglash madaniyatini shakllantiradi, tinglangan mavzusida bir muncha bilimlarga ega bo‘ladi. Audiomatnning tinglangan o‘quvchi mavzuga nisbatan o‘z munosabatini bildirish orqali ham og‘zaki, ham yozma nutqi rivojlanadi. Bundan tashqari, bu o‘quvchilarni darsga yanada ko‘proq jalb qilib, raqamli ta’lim vositalariga nisbatan qiziqishni orttiradi.

Yana shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, barcha ta’lim dargohlari zamonaviy kompyuterlar bilan yetarli darajada ta’minlangan. Kompyuterlar ko‘pgina imkoniyatlarga ega bo‘lib, ulardan ta’lim metodlarini takomillashtirish va yangidan yangi metodlarni amalga oshirishda keng foydalanish mumkin. Dars jarayonlarida kompyuterdan foydalangan o‘quvchi bir paytning o‘zida bir necha imkoniyatlarga ega bo‘ladi: mavzuga doir tasvir va grafiklarni ko‘ra oladi, berilgan topshiriqlarni bemaolol bajara oladi, berilgan audiomatnlarni tinglash imkoniyati mavjud va matnlarni mutolaa qilishi mumkin, hamda mavzuni o‘zlashtirish va takrorlash yuzasidan test topshiriqlari bajarishi mumkin. Qo‘shimcha tarzda o‘quvchi mavzuga ijodiy yondashib, mavzuga doir o‘z fikrlarini bayon etishi, o‘rgangan matnlariga doir suratlar chizishi mumkin.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, raqamli ta’lim vositalarini ta’lim muhitiga chambarchas bog‘lash globallashtayotgan zamon talabidir. Bu vositalardan foydalanish ta’lim oluvchilarni zamon talabiga javob beruvchi shaxs bo‘lishiga yanada chuqurroq undab, oldin namoyon qila olmagan o‘quvchilarning kreativligini ochib berishda muhim vosita bo‘lmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Ernazarova G.O va boshqalar. Kreativ pedagogika asoslari: o‘quv qo‘llanma.- T., 2022.
2. Kirgizova N.X. To‘garak a‘zolari kreativligini takomillashtirishda o‘quv-axborot tizimidan foydalanish texnologiyasi. ERUS.UZ, 2023.
3. 7-sinf ona tili darsligi. Toshkent 2022-yil.
4. «SALOHIYAT - MEZON» ilmiy maqolalar to‘plami. - Namangan 2015.